



THE ROLE OF THEORIES OF REALISM AND LIBERALISM IN IRANIAN FOREIGN POLICY

Kamronbek Radjabov

basic doctoral student

University of World Economy and Diplomacy

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ideology, Realism, Erongeit, Dialogue of Civilization, Liberalism, Soft Power, Ideological Operation, Gray Methods, Ghost Tankers.

Received: 15.02.25

Accepted: 17.02.25

Published: 19.02.25

Abstract: This article analyzed the foreign policy of the Islamic Republic of Iran on the basis of two large schools within the framework of international relations. In explaining the politics of the Iranian country, theories of realism and liberalism were used. Through these two theories, revealing Iran's place and importance in the world political scene, has been defined as a research goal.

ERON TASHQI SIYOSATIDA REALIZM VA LIBERALIZM NAZARIYALARINING O'RNI

Kamronbek Radjabov

tayanch doktarant

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Mafkura, realizm, Erongeyt, Tamaddunlar dialogi, liberalizm, yumshoq siyosat, ideologik operatsiya, kul rang usullar, sharpa tankerlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Eron Islom Respublikasining tashqi siyosati, xalqaro munosabatlardan doirasidagi ikki yirik muktablar asosida tahlil qilindi. Eron mamlakatining siyosatini tushuntirib berishda, realizm va liberalizm nazariyalaridan foydalanildi. Bu ikki nazariya orqali Eronning jahon siyosiy sahnasida tutgan o'rni va ahamiyatini ochib berish, tadqiqot maqsadi sifatida belgilangan.

РОЛЬ ТЕОРИЙ РЕАЛИЗМА И ЛИБЕРАЛИЗМА ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ ИРАНА

Камронбек Раджабов

базовый докторант

Университет мировой экономики и дипломатии

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Идеология, Реализм, Иранагейт, Диалог цивилизаций, Либерализм, Мягкая сила, Идеологическая операция, Серые методы, Танкеры-призраки.

Аннотация: В данной статье была проанализирована внешняя политика Исламской Республики Иран на основе двух основных школ международных отношений. При объяснении политики иранской страны использовались теории реализма и либерализма. Раскрытие роли и значения Ирана на мировой политической арене с помощью этих двух теорий было определено как цель исследования.

Eng qadimiy mamlakatlardan biri hisoblangan Eron davlati, o‘z siyosatini yuritishda uzoq tarixiy tajribaga egaligi bilan ajralib turadi. Bir vaqlar jahon siyosiy sahnasida yagona hukumronlik tartibini o‘rnatgan Fors imperiyasi (miloddan avalgi 558-330) bugungi kunga kelib, ko‘pgina tarixiy o‘zgarishlarga yuz tutdi. Albatta biz tarixda ko‘pgina imperiyalarning butunlay parchalanib, yo‘q bo‘lib, ketganiga guvohmiz. (Rim, Mo‘g‘ullar, Temuriylar) Lekin Fors imperiyasi o‘zining qadimgi maqomini yo‘qatgan bo‘lsada, ammo Eron islom respublikasi sifatida, sharq mamlakatlari ichida yetarlicha yetakchi kuchga ega davlat sifatida o‘zini saqlab qoldi. Eron islom respublikasining hozirgi siyosiy holati va yo‘nalishlarini tushinib yetish uchun bir-qancha muhim tarixiy voqeyleklarni ko‘rib chiqishimiz lozim bo‘ladi.

Yillar davomida Eron mamlakati turli hil o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Misol sifatida shuni aytish mumkinki, bir qancha qarshiliklardan so‘ng 1906-yilda Eron hukumatida konsitutsiyon manarxiya o‘rnatildi, 1921-yilda Axmad shoxni taxtdan ag‘darib Rizoxon Paxlavi o‘z hukumronligini o‘rnatdi. Rizoxon shox keynchalik esa uning o‘g‘li Muhammad Paxlavi qizqagina hukronlik davrida, mutloq Eron siyosatini g‘arblashtirib yubordi, va tarixda g‘arbning qo‘g‘irchoq podshoxi degan titulga ega bo‘lib qoldi. Uning davrida deyarli Eroning barcha yer osti boyliklariga shu jumladan neft va gaz sanoati, Amerika va Buyuk Britaniyaning qo‘l ostiga o‘tdi. Bundan faqatgina Eron xalqi zarar ko‘rar, ijtimoiy ahvol esa yomonlashib borardi, albatta shahar aholisi uchun ijtimoiy holat nisbatan yaxshi bo‘lsada, ammo viloyatlardagi ahvol tubdan farq qilar edi. Shahar aholisining madaniy-ma’rifiy holati o‘ta yevropalashib ketgan, va asta sekinlik bilan milliy qadriyatlar siqib chiqarila boshlagandi. Siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat tobora yomonlashishi natijasida 1979-yilda Oyotulloh Ruhullo Humayniy boshchiligidagi inqilob yuz berdi. Bu inqilob natijasida, mutloq islom qonun-qoidalariga asoslangan teologik davlat sifatida,

Eron islom respublikasi vujudga keldi. Shu nuqtaga diqqat qaratish lozimki, nega endi, Eron boshqa siyosiy mafkurani tanlamasdan aynan islomiy davlatga aylandi? Ahir bu vaziyatda boshqa siyosiy-mafkuraviy kuchlar ham mavjud edi. Masalan o'sha vaqtgagi siyosiy maydonda komunizm hamda kopitalizm tarafдорлari ham siyosiy kuchga ega edi. Faqatgina ikki omil Eron xalqini islom tomon borishga undadi. Bu omil Eron xalqining tub ijtimoiy ongidan joy olgan falsafiy tomoni hisoblanadi. Birinchidan Eron xalqida g'arbona kopitalizmga nisbatan allaqachon nafrat uyg'ongan edi. Ikkinchidan kamunizm mafkurasi, siyosiy-falsafiy g'oya sifatida Eron xalqi uchun deyarli maqul bo'lib, faqatgina xudosizlik tushunchasi bunda katta to'siq bo'ldi. Chunki bir necha asrlar davomida islom dini Eron xalqining ongiga singan, shu sababli ular xudosizlik tushunchasini mutlaq qabul qila olmasdi. Eron mamlakatining islom davlatiga aylanishi uning inqilobdan keyngi, yangilangan pozitsiyasini, hamda tashqi siyosatdagi nazariy-metodalagik asoslarini belgilab berardi.

Eron tashqi siyosatida realizm matabining o'rni:

Realizm, xalqaro munosabalar nazariyalarining ichida eng qadimgilaridan hisoblanib, Fukiditning "Peleponess urushlari" asarida o'z aksini topgan. Keynchalik realizm nazariyasi Nikolla Makiyavelli hamda Tomos Gobsning falsafiy qarashlari doirasida rivojlandi. 20-asrga kelib, Amerikalik olim Gans Margentau tomonidan realizm matabiga asos solingan. Realizm nazariyasi bo'yicha davlatlar o'zini saqlashga, hamda harbiy kuchini ortirishga asosiy diqqatini qaratadi. Realizmga asoslangan davatlarda ko'proq millatchilik kuchli bo'ladi, xudbinlik darajasi o'ta yuqori turadi. Davlatlar xalqaro munosabatlar doirasida o'zining ehtiyoji va ma'nfatini birinchi o'ringa qo'yadi.

Eron islom respublikasning tashqi siyosatini tushuntirishda realizm nazariyasi katta o'rin tutgan bo'lib, Eroning xalqaro munosabatlardagi o'rni hamda tashqi siyosatini yoritishdagi ko'pgina jarayonlar va holatlarni, shu bilan bir qatorda hodisalarni tahlil qilish yordamida, realizmning Eron tashqi siyosatini tushuntirishdagi ahamiyatini yanada kengroq ochib bergen bo'lamiz.

Avvalambor, Eron tashqi siyosatida, islom shariyati poydevor sifatida xizmat qiladi, va bu mustahakam shariy qonunlar yig'indisini chetlab o'tish islom qoidalari bo'yicha og'ir gunoh sifatida qaraladi. Bu nuqtai nazardan qaralganda, Eron siyosatini tushuntirishda realizm maktabi mutlaqo zid ko'rinsada, lekin Eron tashqi siyosatini tahlil qilishda va uni ochib berishda, realizm nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan islomda yadroviy bo'mba ishlab chiqish hamda qo'llash qattiq taqiqlangan, bu haqida Eron islom respublikasining birinchi diniy rahbari va buyuk inqilob yetakchisi Oyatulloh Humayniy o'z fatvosida takidlab o'tgan. Lekin biz bilamizki, Eron o'zining yadroviy bomba ishlab chiqishdagi harakatlarini to'xtatgani yo'q, balki yanada jadallashtirishga qaratilgan harakatlar borligi ma'lum. Bu yerdan ko'rinish turibdiki, Eron o'zining

qudratini oshirish maqsadida, siyosiy vaziyatga real baho berib, tanlangan shariy yo‘ldan og‘ish kuzatilmogda. Bir qarashda bu ta’jublanarli, ammo realizm prizmasi orqali qaralsa, ratsional asosni ko‘ramiz.

1980-1986- yillarda Eron-Iraq urishi vaqitlarida Erongeyt nomi bilan maruf bo‘lgan mojaroviy voqeysalarni tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, Makiyavellining “maqsad vositani oqlaydi” shiori ostida Eron siyosatini ko‘rishimiz mumkin. O‘sha yillarda Eron va AQSh munosabatlari qanchalik darajada yomonlashib ketganini, hattoki, Eron islam inqilobi rahbari Humayniyning bir necha bor o‘z nutqi davomida Amerikani katta shayton deb ataganini bilamiz. Lekin bu urish davrlarida Eron pragmatik yo‘l tutib, Amerikadan qurol-yaroq sotib olgani va dindosh qo‘shti mamlakat bilan shu qurollar orqali kurashganini, faqatgina realizm maktabi orqali ochib berish mumkin desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Eron bu urushda Iroqni aybdor qilib, hujumni ular boshlagani, Eron esa hefz qilganligi to‘g‘risidagi oqlovlarga guvoh bo‘lganmiz. Lekin bu urush qo‘shtimcha resurslarga egalik qilish, yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, o‘z kuchini yanada oshirish maqsadida ekanligi, shundoq ravshan bo‘ladi. OyatulloH Humayniy tomonidan Eron islam respublikasining tashqi siyosatini belgilab beruvchi, mutloq islam shariyatiga asoslangan siyosati, realizm orqali tahlil qilib ko‘rilsa, aslida Eron siyosati qanday tamoyillarga asoslanganligi yuzaga chiqadi.

Eron siyosatida terrorchilik tashkilotlarini moliyalashtirish asosiy o‘rinni egallaydi. Bu haqida Milliy Majlis deputati Jeyhun Mammadov “Report”ga ma’lum qildi. Uning so‘zlariga ko‘ra, bugungi kunda Eron turli musulmon mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan terrorchilik guruhlarini moliyalashda va ularga yordam ko‘rsatishda davom etmoqda: “Bugungi kunda bu bir qator davlatlar misolida yaqqol ko‘rinib turibdi”. Deputatning fikricha, terrorchilik tashkilotlarini moliyalashtirish, Eron siyosatida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. “Biz bu davlat Suriyada bo‘layotgan jarayonlarda faol ishtirok etayotganini ko‘ryapmiz”, — dedi u. J.Mamedov, shuningdek, Eron Suriyada jangarilarni tayyorlash uchun lagerlar yaratganini va uning fuqarolari bu mamlakatdagi harbiy amaliyotlarda bevosita ishtirok etayotganini aytdi.

Lekin bundan kelib chiqgan holda Eron siyosati borasida salbiy xulosaga kelish, yoki umuman olganda, qandaydir to‘xtamga kelish, noto‘g‘ri tushunchalarga olib keladi. Chunki tepada zikr etilgan ma’lumotlar, faqatgina realizm maktabi doirasida tahlil qilindi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, faqatgina realizmning o‘zi manzarani to‘liq yoritib bera olmaydi. Shuning uchun biz Eron tashqi siyosatini tahlil qilishda, kontesptual asos sifatida boshqa nazariy bazalarga ham murojat qilishimizga to‘g‘ri keladi. Shu jumladan, yana bir yirik maktablardan biri bo‘lgan liberalizm nazariyasi oraqlari tahlilimizni davom ettiramiz.

Eron tashqi siyosatida Leberalizm maktabining o‘rni:

Liberalizm - xalqaro munosabatlar nazariyasidagi falsafiy oqim bo‘lib, u o‘zaro bog‘liq uchta tamoyilga asoslanadi: 1. Xalqaro munosabatlarning yagona mumkin bo‘lgan natijasi sifatida hokimiyat siyosatidan voz kechish; bu xavfsizlik/urush realizmi tamoyillarini shubha ostiga qo‘yadi. 2. O‘zaro manfaat va xalqaro hamkorlik. 3. Davlat imtiyozlarini shakllantirish va siyosiy yo‘nalishni belgilashda xalqaro tashkilotlar va nodavlat subyektlarning roli. Liberallar fikricha, xalqaro institutlar davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka asoslangan hamkorlikda asosiy rol o‘ynaydi. O‘zaro bog‘liqlikning uchta asosiy komponenti mavjud. Davlatlar bir-biri bilan iqtisodiy, moliyaviy va madaniy vositalardan foydalangan holda turli yo‘llar bilan o‘zaro hamkorlik qiladilar; xavfsizlikni ta‘minlash, qoida tariqasida, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning asosiy maqsadi emas; va harbiy kuchlar umuman ishlatilmaydi. Liberallar, shuningdek, xalqaro diplomatiya davlatlarni bir-birlari bilanadolatli munosabatda bo‘lishlari va muammolarni hal qilishning zo‘ravoniksiz usullarini qo‘llab-quvvatlashning juda samarali usuli bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlaydilar. Liberallar, institutlar va diplomatiya orqali davlatlar farovonlikni oshirish va mojarolarni minimallashtirish uchun birgalikda ishlashi mumkinligiga ishonishadi.

Eron islom respublikasida 1989-yildan boshlab tashqi siyosat nisbiy jihatdan ancha leberallasha boshladi. Bunga albatta Humayniyning vafoti hamda uning o‘rniga kelgan siyosiy shaxslar va qolaversa bir necha yillar davom etgan Eron-Iraq urishi oqibatida, Eron anchagina zarar ko‘rganligi sabab bo‘ldi. Bunday katta yo‘qotishlar davlatning siyosiy-iqtisodiy yo‘nalishini butunlay o‘zgartirishga majbur qildi. Lekin bu o‘zgarishlar zudlik bilan sodir bo‘lmadi. Eron o‘zining qattiq kuchga asoslangan, qo‘pol siyosatidan vos kechib, dunyoga boshqa tomonidan ochila boshladi.

1989-yil 28-iyulda 96,1 foiz bilan prezidentlik kursisiga o‘tirgan Hashemi Rafsanjani iqtisodiy jihatdan liberal, siyosiy-avtoritar va falsafiy jihatdan an’anaviy siyosat olib bordi. Uning prezidentligi davrida Eron iqtisodiyotda ham, ijtimoiy sohada ham sezilarli liberallashuvni boshdan kechirdi. U Jahon banki tomonidan ma‘qullangan tarkibiy o‘zgarishlar yo‘nalishini qo‘llab-quvvatladı va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashgan zamonaviy sanoat iqtisodiyotini yaratishga intildi. Albatta U islom inqilobi rahbari Humayniyning o‘rniga o‘tirgan oliy rahbar Ali Ruxolloh Hameneining ijozati va qo‘llab quvatlovisiz bunday siyosiy harakatni amalga oshira olmasdi. Rafsanjani Eronda to‘liq erkin bozorni yaratishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirdi, ammo bu inflyatsiyaning katta o‘sishiga olib keldi. Shuningdek u mamlakat ichidagi korruptsiyada va uning chegaralaridan tashqarida dissidentlarga qarshi repressiyalarda ayblangan.

Eron islom respublikasining tashqi siyosatida liberalizmning yumshoq kuchka asoslangan konponenti, Muhammd Xatamining tashqi siyosatida o‘z aksini topa boshlada. Ayniqsa uning “tamaddunlar dialogi” konsepsiysi bunga xizmat qildi. Xattoki 2001-yil BMT da “tamaddunlar

dialogi” yili deb e’lon qilindi. Bu konsepsiya Eron islom respublikasining jahon mamlakatlari ichida ijobiy obraz paydo bo‘lishga, g‘arb va sharq mamlakatlari bilan a’loqa o‘rnatishga hamda iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan edi. Lekin natija kutilgani kabi bo‘lmadi. To‘g‘ri ushbu liberalizmga asoslangan konseptual g‘oya bir qaraganda ayni Eron uchun mos bo‘lgan, qo‘yilgan maqsad tomon to‘g‘ri yo‘l kabi ko‘rinishi mumkin. Chunki Eron tammaduni yetarlicha boy va uzoq tarixga ega, lekin Eron G‘arb mamlakarlari qarshisida, xattoki ayrim sharq mamlakatlari ichida salbiy obroz uyg‘atib bo‘lgandi. Ammo shunday bo‘lishiga qaramasdan keyngi yillarda Eron o‘zining liberal siyosati orqali ko‘pgina davlatlar bilan munosabat o‘rnatdi, va bu orqali Eron liberal siyosiy ta’sir o‘tkazish konsepsiyanini ishlab chiqsa boshladi.

1991-yilda sobiq sovet parachalanishi, Eron uchun katta imkoniyatlarni yaratib berdi. Tarixan olib qaraganda, Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro madaniy-m’arifiy va diniy jihatdan uyg‘unlik Tehron uchun keng imkoniyatlarni yaratardi. Xususan **yumshoq siyosat** olib borish uchun zamin bor edi. Eron markaziy osiyo davlatlariga nisbatan yumshoq siyosat olib borar ekan, u ushbu davlatlarning milliy manfaatlaridan kelib chiqib, qiyosiy tahlil qilgan holda, yaratilgan ta’lim markazlari orqali o‘z manfaati yuzasidan, ta’sir ko‘rsatish doirasi atrofida tadqiqotlar olib bormoqda. Bu vaqtda Eron tashqi ishlar vazirligi Markaziy Osiyo davlatlarining ta’lim faoliyati doirasidagi hukumron sinflarni to‘xtovsiz tahlil qilib boradi.

Eron o‘zining yumshoq siyosatini ta’lim oraqlari ham juda keng qamrovda amalga oshirib kelmoqda. Sa’diy jamg‘armasi 2012 yilda Eron tashqi siyosatining strategik maqsadlari asosida tashkil etilgan va siyosat resurslaridan foydalanishni maqsad qilgan edi. Ta’lim sohasidagi faoliyatni tashkil etish orqali “yumshoq kuch” siyosatini, xorijdagi tadqiqot, madaniyat va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirish ko‘zda tutilgan edi. Shu bilan birgalikda Sa’diy fondi dunyoda fors tili va adabiyotini o‘rgatuvchi yirik til markazi bo‘lib xizmat qilishi rejalashtirilgan. Tehron hukumati Tojikistonda Eron madaniyati markazi, tojik-fors madaniyatini o‘rganish instituti, fors tili va adabiyoti manbalariga ega kutubxonalar, yetakchi bo‘lgan fors tili fakultetlarini tashkil etdi. Oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, “Payvand” ilmiy-ommabop jurnalini yaratish va turli ommaviy axborot vositalarida Eronning moddiy va madaniy merosi va qadriyatlarini targ‘ib qilish orqali Eron tashqi siyosati maqsadlariga xizmat qiluvchi ilmiy maqolalar chop etishni moliyalashtirdi. Shu bilan bir qatorda Eron hukumati Qozoqiston, Qirg‘iziston va Turkmanistonda ilmiy kvalifikatsiyani oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada kuchaytirdi.

Eron tashqi siyosatini tahlil qilayotgan exportlar shunday to‘xtamga kelishdiki, bir qaraganda Eron tashqi siyosatidagi bunday ijobiy harakatlar xatarli, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. 2015-yil dekabr oyida Tojikiston hukumati Eron tashqi siyosatidan noroziligina xabar qildi. Bu norozichilik Eronning Tojikistondagi oppozitsion “Islom harakati” partiyasi yetakchisini

rasmiy tashrif bilan taklif qilgani sabab bo'ldi. Tojikiston ham Eron tomonidan amalga oshirilayotgan "ideologik operatsiya" larga javoban 2017-yilda markaziy televidiniyasida Eronning radikal teraristik guruhlarni moliyalashtirishi to'g'risida xujjal film ko'rsatildi. Shu bilan bir qatorda O'zbekistonda ham Eronga nisbatan bunday xavfsirashlardan tug'ilgan reaksiyalarni uchratish mumkin. Bunga bojxonalardagi holatlar misol bo'la oladi. Agar biron ta'minot Eron davlatiga tegishli bo'lsa, uni sinchiklab tekshirishadi. Eron davlatiga qarata bo'layotgan bunday munosabatdan ko'rinish turibdiki, hali hanuz boshqa davlatlar nazdida Eron salbiy o'rin tutganligi, hattoki "islom inqilobi exporti" g'oyasidan kechganligiga qaramasdan, shu kabi xavfsirashlar kuzatiladi.

Eron islom respublikasining liberal tashqi siyosat olib borishidagi ijobiy natijalarini, ko'pgina davlatlar bilan o'rnatgan iqtisodiy munosabatlarida va bundan Eron davlati ko'rayotgan manfatdor loyihalarning progress va regress holatlarini kuzatamiz. Birinchi navbatda Eronning geosiyosiy joylashgan o'rni katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari Eron foydali qazilmalarga boyligi va ularni arzon narxlarda taklif qila olishi, Eron uchun bir-qancha liberal siyosatda muvaffaqiyat eshiklarini ochadi. Shu bilan bir qatorda, Eronning to'xtovsiz sanksiyalarga giriftor bo'lishi, Eronni qiyin vaziyatga solish bilan bir qatorda, bunday muhitda o'zini saqlash uchun qator majburiyatlarni zimmasiga yuklaydi.

Eron uchun eng muhim valyuta olib keluvchu sohalardan biri neft hisoblanadi. Aynan hom neft Eronga kirib kelayotgan 70% valyuta miqdorini ta'minlaydi. Buni hayron qolarli joyi yo'q, chunki jahon zaxirasining 9% (208.600 mln barel 2021-yil uchun OPEK bo'yicha) qora oltini Eronga to'g'ri keladi.

Eron gaz zaxirasi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadi (17,3%) OPEK bo'yicha bu miqdor 33.988 mlrd k.m ga teng.

Bundan tashqari Eron sink zaxirasi bo'yicha ikkinchi o'rinda, mis bo'yicha esa 7-o'rinda turadi. Umuman olgan Eron foydali qazilmalarga boy davlat hisoblanishiga qaramasdan eksport va import masalasida Eron bir qancha muammolarga duch keladi. Eron neft eksport qilishda bir qancha "kul rang" usullardan foydalanadi. Ulardan mashxuri "sharpa-tankerlar" deb nomlanadi. Tankerlar Eron sohillarini tark etar ekan, ularda hech qanday belgi bo'lmaydi, hattoki ularning yo'nalishini ham kuzata olishmaydi, chunki ularning yo'nalishini kuzatuvchi tizimi o'chiq holda harakatlanada. Ma'lum punktga kelganda esa umuman boshqa bayroq ilingan kema ularni kutib olib, yukni ko'chirib o'tadi. Albatta Eron bunday sanksiyalar ta'sirida shunday usullardan foydalanishga majbur.

Eron markaziy osiyo davlatlari uchun okeanga chiqishning eng qulay karidori hisoblanadi, va shuni takidlash joizki, bu ustunlikdan Eron yetarlicha foydalana oladi. Eron Turkmanistonning svop gaz exporti uchun muhim ro'1 o'ynaydi. 2023-yilda Turkmaniston gaz qazib olishni qariyb 7

foizga oshirib, 80,6 milliard kub metrga yetkazdi. Turkmaniston rasmiylariga ko‘ra, eksport 12,6 foizga oshgan. 2023-yilda mamlakat o‘z gazini asosan Xitoya, shuningdek, Rossiya, Ozarbayjon va O‘zbekistonga sotgan. Hozirda Turkmaniston va Eron ikki gaz quvuri orqali bog‘langan. Turkmaniston Tashqi ishlar vazirligining xabar berishicha, davlatlar Eronga qo‘srimcha gaz hajmini yetkazib berish uchun yangi quvurlar qurishni rejalashtirmoqda.

Umuman olganda Eron o‘rto osiyo davlatlari uchun manfatdor geosiysisi obyekt sifatida keragligini tushunib yetgan. Bu ustunlikdan Eron maksimal darajada foydalanish uchun o‘zining liberal siyosatini ilgari surmoqda. Buning uchun Eron o‘zini giosiyosiy maydonda muhim figuralardan biri ekanligini ko‘rsatib qo‘yish maqsadida, liberalistik maktab tamoyillariga asoslangan targ‘ibot va tashviqot ishlarini keng qamrovda yuritmoqda. Lekin shunday bo‘lishiga qaramasdan, Eron o‘zining ta’sir doirasini oshirishda va avtoritetini ko‘tarishda faqatgina liberal tomondan qadam bosishi kifoya qilmaydi. Buni anglagan holda Eron tashqi soyosat yuritishda, yanada kengroq qamrovda harakat qilmoqda. Biz bunday keng ko‘lamli siyosiy jarayonlarni tushuntirib berishda, chuqur tadqiqot olib borishimizga to‘g‘ri keladi. Buning uchun xalqaro munosabatlar doirasida muhum o‘rin tutgan maktablarga murojat qilishimga to‘g‘ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алиев Салех Мамедоглы. ИСТОРИЯ ИРАНА XX ВЕК (ст.30-34)
2. <https://bigenc.ru/c/islamskaia-revolutsiia-v-irane-1979-afef01>
3. DINA ESFANDIARY AND ARIANE TABATABAI. TRIPLE AXIS IRAN’S RELATIONS WITH RUSSIA AND CHINA Ю.П.
4. Помелова, О.В. Сафонова. Материалы для чтения по теории международных отношений Часть 1. Реализм
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/irangeyt-izrail-i-rafsandzhani-hronika-amerikano-iranskikh-peregovorov-1985-986gg>
6. <https://www.golosameriki.com/a/pence-called-iran-regime-a-leading-state-sponsor-of-terrorism/5089694.html>
7. Веденина Нинель Анатольевна. Современный политический либерализм и проблема социальной справедливости
8. Кокликов Владимир Олегович. АЛИ АКБАР ХАШЕМИ-РАФСАНДЖАНИ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ ИРАНА (1950-е – 1980-е гг.)
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/potentsial-myagkoy-sily-islamskoy-respubliki-iran>
10. https://www.iran.ru/news/politics/106425/Iran_osudil_film_pokazannyy_televide niem_Tadzhikistana
11. Лилия Пашкова. Экспорт нефти из Ирана достиг максимума за шесть лет. <https://www.rbc.ru/economics/18/04/2024/6620ae789a7947e6b55e387b>